

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko`ra, 2020- yilning yanvar–sentabr oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o`rinlarda – YaHM) hajmi jorii narxlarda 14 901,8 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 2,8 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 110,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, 2019- yil yanvar- sentabriga nisbatan % da</i>
		<i>2019-yil</i>	<i>2020-yil</i>	
	I. YaHM	13 156,1	14 901,8	102,8
<i>shu jumladan:</i>				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 580,0	14 516,7	102,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	576,1	385,1	102,9
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 580,0	14 516,7	102,8
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5 889,7	6 891,3	104,3
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5 889,7	6 891,3	104,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 563,6	2 925,2	104,4
	sanoat	1 723,5	1 932,9	105,6
	sanoat	1 723,5	1 932,9	105,6
	qurilish	840,1	992,3	101,8
	qurilish	840,1	992,3	101,8
	Xizmatlar	4 126,7	4 700,2	99,8

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, 2019-yil yanvar-sentabriga nisbatan % da
		2019-yil	2020-yil	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	781,6	828,6	94,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	777,4	855,8	102,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 567,7	3 015,8	100,8

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 7 946,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga yuqoridir.



Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,6 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,7 %ga ko'paydi va hisobot yilida 47,5 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining ulushi 13,3 % dan iborat bo'lib, 0,4 % ga kamaydi, qurilishtarmog'ining ulushi esa 0,1 %ga oshib, 6,8 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 32,4 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,4 %ga pasaydi.



**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**


		2019- yil	2020- yil
I. YaHM, jami		100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,6	97,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,4	2,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati		100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	46,8	47,5
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	20,4	20,1
	sanoat	13,7	13,3
	qurilish	6,7	6,8
Xizmatlar		32,8	32,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,2	5,7

		2019- yil	2020- yil
--	--	-----------	-----------

	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,2	5,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	20,4	20,8





Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog`liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 104,3 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 47,5 %), sanoatda – 105,6 % (13,3 %), qurilishda – 101,8 % (6,8 %), xizmatlar sohasida – 99,8 % (32,4 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 94,5 % (5,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 102,0 % (5,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 100,8 % (20,8 %)dan iborat bo`ldi.




**Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2020- yilning yanvar-sentabrdagi iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i YaHMning mos ravishda 1,9 f.p. (2019- yilning yanvar-sentabrdagi 1,5 f.p.)ga o'sishiga hissa qo'shdi. YaHMning o'sishiga sanoatning qo'shgan hissasi 0,7 f.p., qurilishniki 0,1 f.p. darajasida baholandi.



2020- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning
hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 110,1 foizni tashkil etdi. YaHM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 112,2 % va xizmatlar sohasida – 114,1 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

